



UDK: UDK 582.3.522.4:

**DORIVOR O'SIMLIKLARNING TABIATDA VA INSON HAYOTIDAGI
O'RNI**

Xaitova Lobar Baxtiyorovna

Lobarxaitova8@gmail.com

Jonizoqova Shahinabonu Sohibjon qizi

shahinabonu855@gmail.com

Umarova Durдона Otabek qizi

Umarovadurdona01222005@gmail.com

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dorivor o'simliklar ahamiyati va qo'llanishi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan hamda ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar tahlil etilgan.*

Kalit so'z: *giyohlar, alkaloidlar, edir moylari, flavanoidlar, trisiklik diterpenlar, glikazidlar.*

Annotation: *This article provides some information on the importance and use of medicinal plants and analyzes the information presented in this article.*

Keywords: *herbs, alkaloids, edible oils, flavanoids, tricyclic diterpenes, gliclazide.*

Dorivor o'simliklar – odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar – giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10– 12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan (introguksiya) 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 45–50% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"



Dorivor o'simliklar.

Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab – alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar, 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab – tinchlantiruvchi, og'riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar, bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorivorning ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik uyquga kirgan davrda – kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin – erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib etilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi yig'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi.

Tukli erva (aerva lanata juss. A.)- Mahsulot siydik haydash va spazmolitik ta'sirga ega. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

tukli erva damlamasini respublika hududida tibbiyot amaliyotida spazmolitik va peshob haydovchi vosita sifatida ishlatishga ruxsat bergan.

Dorivor maqsadlarda o'simlikning bargi va mevasi keng qo'llaniladi. Uning barglari o'simlik gullaganidan boshlab to kuzgi sovuqlar tushguncha

yig'iladi. Yig'ib terib olingan barglar shamollab turadigan joylarda soya va quruq joyda quritiladi. Mevasi pishganidan so'ng terib olinadi. Yig'ib olingan mevalar quritilib, yanchiladi va g'alvirdan o'tkazilib, urug'laridan ajratiladi.[11]

Tog'qudusi- (*Betonica betoniciflora* Rupr.) bu Lamiacea oilasiga mansub 75-100 sm balandlikdagi ko'p yillik o'simlik. Tog'qudusi O'rta Osiyoning tog'li - o'rmonli mintaqalarida (Tyon-Shon, Pomir-Oloy) keng tarqalgan.

Tibbiyotda qo'llanilishi 700 C spirtida tayyorlangan tog'qudusi 10% nastoykasi vena ichiga yuborilganda, shuningdek, og'iz orqali qabul qilinganda tajriba davomida bachadon mushaklari tonusining uzayishi va bir vaxtning o'zida qisqarishni ko'payishiga olib keladi. 1:1 nisbatdagi 40% spirtli suyuq ekstrakti 10% damlamaga qaraganda iqtisodiy va bbiologik jixatdan samaraliroq dozalash shakli sifatida tavsiya etiladi. Bundan tashqari, u nevrozlarni davolashda 10-12 kun davomida ichiladi. Uzoq bitmaydigan yiringli yaralarda tashqi tomondan dokani ho'llash shaklida davolashda ishlatiladi. Damlama tayyorlash uchun 200 ml suvga 2-3 osh qoshiq maydalangan hom ashyodan solinadi. Ushbu damlamaning buzoqlarga balg'am ko'chiruvchi sifatida kuniga 3-4 marta 1-2 choy qoshiq ichiriladi. [5,8,10,12]

Samarqand bo'znochi (*H.maracandicum*) O'rta Osiyo (Tiyan - Shan va Pomir - Oloy tog' tizmalarida) mamlakatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston davlarida tabiiy xolda tarqalgan bo'lib, xususan O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog' va tog'oldi mintaqalarining dengiz satxidan 1000 - 2500 metr baland bo'lgan joylarida uchraydi. Bu esa o'z navbatida turning tarqalish areali respublikamizda nisbatan kengligini ko'rsatadi.

Bo'znoch savatchasi (gul to'plami) tarkibida flavonoidlar (izossalipurpozid, salipurpozid, kempferol, naringenin, apigenin, gelixrizin va boshqalar), glikozidlar, organik kislotalar, kumarinlar, polisaxaridlar, vitamin K, efir moylari, mum va achchiq tanidlar uchraydi.[4]

Helichrysum maracandicum o'simligini gullarini urug'lashdan oldin yig'ib olingan. Bo'znochning bir necha turlari dorivor o'simliklar sifatida hususan uning gul g'unchalaridan dorivor moddalar, ekstraktlar yoki granulalar hoida tibbiyotda jigar va o't yo'llarining surunkali kasalliklari, xoletsistit va gepatitda qo'llaniladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Samarqand bo'znochi o'simligidan tayyorlangan preparatlar xolesistit, va gipoxolesistit kasalliklarini xamda jigar, o't pufagi, buyrak va o't yo'li kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda insonning hayotida eng ahamiyatlisi bu uning sog'lig'i hisoblanadi. Shu bois, har bir inson eng avvalo, o'zi, oilasi va yaqinlarining salomatligi uchun ma'sul bo'lishi lozim. O'zbekistonni jannatmakon o'lka desak yanglishmaymiz chunki har qadamimizda dardimizga davo bo'luvchi o'simliklar o'sib gullayabdi. Yon-atrofimizdagi bizni qamrab olgan barcha o'simliklar kasalliklarga davo hisoblanadi. Lekin, inson avvalo o'zining va yaqinlarining sog'ligiga e'tiborli bo'lsa, bunda har qanday kasallikni davolashdan k o'ra, uni oldini olish oson va samarali ekanligi o'z ifodasini topadi.

Dorivorlik xususiyatlarga ega bo'lgan o'simliklar haqidagi dastlabki ma'lumotlar, hamyurtlarimiz bo'lgan buyuk allomalar - Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Zakariyo Roziy va boshqalarning ilmiy asarlarida ko'plab keltirilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning 5 ta kitobdan iborat bo'lgan qisqacha nomi "Tib qonunlari" bo'lgan asarlar to'plamida va Abu Rayxon Beruniyning qisqacha nomi "Saydana" bo'lgan memuar asarlarida ham turli mintaqalar va tog' tizmalarida o'suvchi o'simliklar va ularning dorivorlik xususiyatlari haqida keng va batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston florasidagi 4148 ta turdan 600 taga yaqini dorivor, shifobaxsh o'simliklar hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda kimyofanining kuchli taraqqiy etishi natijasida farmatsevtika sanoati ham rivojlandi. Buning natijasida insonga tez ta'sir etuvchi yangidan-yangi dori vositalari sintez qilib olindi. Biroq shunga qaramay, dorivor o'simliklarga, undan tayyorlangan damlama, qaynatma, surtma va tolqonlarga bo'lgan talab xamon kattaligicha qolmoqda.

Ilmiy meditsinada ishlatiladigan dorivor preparatlarning 45% i o'simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Ba'zi o'ta qimmatli dorivor preparatlar, masalan, yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan glikozidlar (yurak glikozidlari) shu vaqtgacha faqat o'simliklardan olib kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4901- sonli qarori. - Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-251-sonli qarori. - Toshkent, 2022.

3. O.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor o'simliklar etishtirish texnologiyasi va ekologiyasi."Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti Toshkent - 2018

4. O'G'Li, Rustam Muydinov Xasan, Yarmuhammedov Jasur Mansurovich, and Muxiddinova Nafisa Sirojiddin Qizi. "SAMARQAND BO 'ZNOCH (HELICHRYSUM MARACANDICUM POPOV EX KIPR.) YETISHTIRISH AGROTEKNOLOGIYASI." Science and innovation 2.Special Issue 11 (2023): 272-279.

5. Yarmuhammedov, Jasur. "БИОЛОГИЯ, ЦВЕТЕНИЕ И СЕМЕННАЯ ПРОДУКТИВНОСТЬ БУКВИЦЫ ОЛИСТВЕННОЙ (STACHYS BETONICAЕFLORA)." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 44.44 (2023).

6. Yarmuhammedov, Jasur. "TUPROQ SHO'RLANISHINI MONITORING QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 43.43 (2023).

7. Ashurmetov O.A., Karshiboev X.K. Семенное размножение бобовых растений в аридной зоне Узбекистана. - Tashkent: Fan, 2002. - 204 s.

8. Yarmuhammedov, Jasur. "TOG 'QUDDUSI (STACHYS BETONICAЕFLORA) NI URUG 'MAHSULDORLIGI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 42.42 (2023).

9. Axmedova O', Ergashev A, Abzalov A, Yulchieva M. «Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi». Toshkent.2009 y.

10. Yarmuhammedov, Jasur. "TOF KUDDUSI (STACHYS BETONICAЕFLORA) NI GULLASH BILOGIYASI VA URUF MAHSULDORLIGI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41.41 (2023).

11. Jumayev, Tolibjon. "AERVA LANATA JUSS. NI BUHORO VILOYATI SHAROITIDA UNIB SHIQISHI VA RIVOJLANISHINI O'RGANISH." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 44.44 (2023).



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

12. Yarmuhammedov, Jasur. "STACHYS BETONICAEFLORA Rupr. НИ
КЎПАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ
ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41.41 (2023).